XALQ DEPUTATLARI QAMASHI TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2021 - yil 7 - dekabr VI-43-80-4-58-K/21 Qamashi tuman hokimligi

Qamashi tumanidagi aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo‘lgan nomsiz ko‘chalarga nom berish to‘g‘risida

Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo‘lgan nomsiz ko‘chalarga nom berish to‘g‘risidagi Qamashi tuman hokimligiga kiritgan iltimosnoma xati, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2021-yil 24-iyundagi 5-son yig‘ilish bayoni, Qamashi tuman hokimining aholi punktlarining tarkibiy qismlariga nom berish to‘g‘risida 2021-yil 25-iyundagi taklifi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2021-yil 29-iyuldagi 01-14-554-son ekspert xulosasini ko'rib chiqib O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari Qamashi tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Qamashi tumanida Geografik obektlarga nom berish to‘g‘risida Qamashi tumani hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (Ro‘ziyeva)ning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2021-yil 29-iyuldagi 01-14-554-son ekspert xulosasiga asosan Qamashi tumani hokimining aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo‘lgan nomsiz ko‘chalarga nom berish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

3. Qamashi tumanida nom berilayotgan geografik obe’ktlarning ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Qamashi tumani hokimining o‘rinbosari - Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Bekmurzayev) bir hafta muddatda tuman hududidagi aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo‘lgan nomsiz ko‘chalarga nom berilgan ko‘chalarga zamonaviy ko‘rinishda peshlavhalarga yozib o‘rnatish, aholi o‘rtasida keng targ‘ibot-tashviqot ishlari o‘tkazilishini taminlasin.

5. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Meyliyev) nom berilgan hududda yashovchi aholining fuqarolik pasportlari berilayotganda mazkur holatga alohida e’tibor qaratsin.

6. Ushbu qaror “Qamashi” gazetasida e’lon qilinsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari B.Haydarov, Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Omonova zimmasiga yuklansin.

8. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi **B.Tog‘ayev**

Халқ депутатлари Қамаши туман
Кенгашининг
2021 йил 7 декабрдаги
VI-43-80-4-58-K/21-сон қарорига
1-илова

Qamashi tumanida nom berilayotgan geografik obe’ktlarning

RO‘YXATI

№	MFY nomi	Aholi punkti	№	Obyekt nomi	№	Taklif qilingan nom	Ko‘cha nomiga izoh
1.	**Qorasuv MFY**	Shahar hududi	1.	Nomsiz ko‘cha	1.	Shahrisabz	Qadimiy shahar nomi
			2.	Nomsiz ko‘cha	2.	Turkiston	Turkiy tilda so‘zlashuvchi xalq yashagan joy nomi
			3.	Nomsiz ko‘cha	3.	Temur Malik	Milliy qahramon, tarixiy shaxs nomi
			4.	Nomsiz ko‘cha	4.	Beshko‘prik	Mahalliy aholi oldindan qo‘llagan joy nomi
			5.	Nomsiz ko‘cha	5.	Temiryo‘l	Shu hududni temiryo‘l kesib o‘tadi
			6.	Nomsiz ko‘cha	6.	Gulchaman	Ijobiy ma’noli so‘z, gulzor
			7.	Nomsiz ko‘cha	7.	Rayhonobod	Ijobiy ma’noli so‘z, obod joy
			8.	Nomsiz ko‘cha	8.	Semurg‘	Afsonaviy baxt qushi nomi
			9.	Nomsiz ko‘cha	9.	Sharaf-shon	Ijobiy ma’noli so‘z, g‘urur, faxr
2.	**Mang‘it MFY**	Shahar hududi	1.	Nomsiz ko‘cha	10.	Najmiddin Kubro	O‘zbekiston tarixida chuqur iz qoldirgan alloma
			2.	Nomsiz ko‘cha	11.	Xudoyberdi To‘xtaboyev	O‘zbekiston Xalq yozuvchisi, adib
			3.	Nomsiz ko‘cha	12.	Abu Nasr Farobiy	Qomusiy olim nomi
			4.	Nomsiz ko‘cha	13.	Mashrab	Mumtoz o‘zbek shoiri, faylasuf
3.	**Uzun MFY**	Tong	1.	Nomsiz ko‘cha	14.	Ozoddiyor	Mustaqil yurt, ozodlik
			2.	Nomsiz ko‘cha	15.	Obodzamin	Obod qilingan yer
		Uzun	1.	Nomsiz ko‘cha	16.	Bog‘zor	Bog‘ yaratilgan joy, bog‘i mo‘l
			2.	Nomsiz ko‘cha	17.	Ziynat	Yaxshi xulq, xususiyat, ijobiy ma’noli so‘z
			3.	Nomsiz ko‘cha	18.	Uzun	Shu hududning tarixiy nomi
4.	**Balandchayla MFY**	Chimqo‘rg‘on	1.	Nomsiz ko‘cha	19.	Sharshara	Suv omboridan chiqadigan sharsharaga qiyos
			2.	Nomsiz ko‘cha	20.	Baxt-iqbol	Ijobiy ma’noli so‘z, kelajakka ishonch

			3.	Nomsiz ko‘cha	21.	Yurt iftixori	Ijobiy ma’noli so‘z, faxrlanish, g‘urur tuyg‘usi
		Chambil	1.	Nomsiz ko‘cha	22.	Zarkent	Boy, mehnatkash xalqi bor maskan
		Baland-chayla	1.	Nomsiz ko‘cha	23.	Chilonzor	Qadimgi o‘zbek maskanlaridan birining nomi
			2.	Nomsiz ko‘cha	24.	Otchopar	Aholi qadimdan nomlagan joy nomi
			3.	Nomsiz ko‘cha	25.	Oltinboshoq	G‘allasi mo‘l , bug‘doy navi nomi ijobiy ma’noli so‘z
			4.	Nomsiz ko‘cha	26.	Bog‘iguzar	Bog‘i ko‘p joy, ijobiy ma’noli so‘z
			5.	Nomsiz ko‘cha	27.	Nurli ostona	Ijobiy ma’noli so‘z, yurt, tug‘ilib o‘sgan joy
			6.	Nomsiz ko‘cha	28.	Oftob	Yorug‘lik, issiqlik, kelajakka ishonch ma’nosida
5.	**Rabot MFY**	Past Sarto‘ldi	1.	Nomsiz ko‘cha	29.	Past Sarto‘ldi	Shu hududning qadimgi nomi
			2.	Nomsiz ko‘cha	30.	O‘zbegim	Millat nomii
			3.	Nomsiz ko‘cha	31.	Zamindor	Shu hududning qadimgi nomi
		Qo‘rg‘ontepa	1.	Nomsiz ko‘cha	32.	Obodqo‘rg‘on	Obod qilingan joy
			2.	Nomsiz ko‘cha	33.	Bog‘irabot	Ijobiy ma’nodagi so‘z, rabot bog‘i
			3.	Nomsiz ko‘cha	34.	Mulkiobod	Joyi obod qilingan, ijobiy ma’noli so‘z
		Bayram	1.	Nomsiz ko‘cha	35.	Orombaxsh	Rohat beruvchi, soya-salqin
			2.	Nomsiz ko‘cha	36.	Bog‘mahalla	Bog‘i ko‘p joy
			3.	Nomsiz ko‘cha	37.	Zartuproq	Yeri hosildor tuproq, Ijobiy ma’noli so‘z
		Uzumzor	1.	Nomsiz ko‘cha	38.	Charos	Eng chiroyli va shirin uzum navi
			2.	Nomsiz ko‘cha	39.	Obichashma	Suvi, mevasi shirin, shifobaxsh, ijobiy ma’noli so‘z
			3.	Nomsiz ko‘cha	40.	Kishmishli	Kishmish-shirin uzum nomi bilan bog‘liq so‘z
		Mehnat-obod	1.	Nomsiz ko‘cha	41.	Mingtut	Tutlari ko‘p joy
			2.	Nomsiz ko‘cha	42.	Yakkasaroy	Qadimgi o‘zbek joy nomlaridan biri
			3.	Nomsiz ko‘cha	43.	Obodvodiy	Obod, yam-yashil joy
6.	**Elobod MFY**	Katta Arab	1.	Nomsiz ko‘cha	44	Omontepa	Aholi qadimdan qo‘llagan so‘z, tepalik mavjud
			2.	Nomsiz ko‘cha	45.	Kaltaminor	Aholi qadimdan qo‘llagan joy nomi
			3.	Nomsiz ko‘cha	46.	Laylisoy	Aholi qadimdan qo‘llagan joy nomi
		Kattatol	1.	Nomsiz ko‘cha	47.	Karvonboshi	Aholi qo‘llagan qadimgi joy nomi

			2.	Nomsiz ko‘cha	48.	Chashmabuloq	Ham chashma, ham buloq bor joy.Aholi qadimdan qo‘llagan joy nomi
7.	**Boburtepa MFY**	Pastol	1.	Nomsiz ko‘cha	49.	Boburtepa	Qadimgi tepalik, 14-15-asr
			2.	Nomsiz ko‘cha	50.	Qirg‘iz	Shu hududda yashovchi urug‘ nomi
			3.	Nomsiz ko‘cha	51.	O‘g‘lonjonota	Boburiylar sulolasiga mansub qadimgi ziyoratgoh nomi
		Qo‘shtam-g‘ali	1.	Nomsiz ko‘cha	52.	Qo‘shtamg‘ali	Qadimda boy darvozasida qo’sh tamg’a bo’lgan, shu hududning qadimgi nomi
8.	**Qorabog‘ MFY**	Jo‘ybek-nazar	1.	Nomsiz ko‘cha	53.	Jo‘ybeknazar	16-17-asrdan mavjud, shu hududning qadimgi nomi
			2.	Nomsiz ko‘cha	54.	Nurlidiyor	Baxtli, go‘zal diyor, vatan
			3.	Nomsiz ko‘cha	55.	Farog‘at	Rohat, erkinlik
		Qorabog‘	1.	Nomsiz ko‘cha	56.	Karvonsaroy	Qadimdan aholi qo‘llagan joy nomi
			2.	Nomsiz ko‘cha	57.	Yangikent	Yangi shahar, yangi avlod yashaydigan joy,ijobiy ma’noli so‘z
			3.	Nomsiz ko‘cha	58.	Chorsu	To‘rt tarafli yo‘li bor ko‘cha , qadimgi o‘zbek joy nomi
			4.	Nomsiz ko‘cha	59.	Qo‘shtut	Tutlari ko‘p manzil
9.	**Quyi Yangi MFY**	Ko‘lyomg‘ir	1.	Nomsiz ko‘cha	60.	Yangiguzar	Aholi yashaydigan manzil, mahalla.Ijobiy ma’noli so‘z
			2.	Nomsiz ko‘cha	61.	Madadkor	Hamkor, do‘st, ijobiy ma’noli so‘z
			3.	Nomsiz ko‘cha	62.	Dashtobod	Suvsiz obod qilingan joy
			4.	Nomsiz ko‘cha	63.	Gulvodiy	Gullari ko‘p, yashil o‘lka, joy.
		Quyi Yangi	1.	Nomsiz ko‘cha	64.	Bog‘u-bo‘ston	Bog‘lari ko‘p, obod qilingan joy
			2.	Nomsiz ko‘cha	65.	Sayido Nasafiy	17-asrda Qashqadaryoda ijod qilgan alloma
			3.	Nomsiz ko‘cha	66.	Mirzo Bedil	17-18-asrlarda yashagan, asli Shahrisabzlik faylasuf, shoir
			4.	Nomsiz ko‘cha	67.	Anhor	Geografik obyekt, suv oqib o‘tadigan joy
10.	**Istiqbol MFY**	Kuba	1.	Nomsiz ko‘cha	68.	Obodmanzil	Obod qilingan, chiroyli joy, ijobiy ma’noli so‘z
			2.	Nomsiz ko‘cha	69.	Ko‘ksaroy	Qadimgi o‘zbek joy nomlaridan biri
			3.	Nomsiz ko‘cha	70.	Hamdo‘stlik	Ijobiy ma’noli so‘z

			4.	Nomsiz ko‘cha	71.	Jarliqo‘rg‘on	Shu hududni suv oqadigan katta jarlik kesib o‘tadi
		O‘rta Kuba	1.	Nomsiz ko‘cha	72.	O‘rta Kuba	Kuba-turkiy tilda saxiy, zamonaviy, shu hududning qadimgi nomi
			2.	Nomsiz ko‘cha	73.	G‘allazor	Shu hududning qadimgi nomi
		Do‘ng Kuba	1.	Nomsiz ko‘cha	74.	Do‘ng Kuba	Shu hududning qadimgi nomi
			2.	Nomsiz ko‘cha	75.	Palvontepa	Boy, saxiy, palvon odamlar yashagan joy, tepalik nomi
		Yuqori Uchtepa	1.	Nomsiz ko‘cha	76.	Nurobod	Obod qilingan chiroyli joy nomi, ijobiy ma’noli so‘z
			2.	Nomsiz ko‘cha	77.	Obodyo‘l	G‘alla ekiladigan joyda imoratlar qurilgan
11.	**Azlartepa MFY**	Qurilish	1.	Nomsiz ko‘cha	78.	Terakli	Terak ko‘p ekilgan joy nomi
			2.	Nomsiz ko‘cha	79.	Musobozor	Qadimda Kitob tumani Musobozor qishlog‘idan ko‘chib kelgan aholi yashab qolgan joy nomi
			3.	Nomsiz ko‘cha	80.	Beshtut	Aholi qadimdan qo‘llagan joy nomi
			4.	Nomsiz ko‘cha	81.	Mingo‘rik	Aholi qadimdan qo‘llagan joy nomi
			5.	Nomsiz ko‘cha	82.	Taqachi	Aholi shug‘ullangan kasb nomi, joy nomi
			6.	Nomsiz ko‘cha	83.	Obodostona	Obod, go‘zal yurt
			7.	Nomsiz ko‘cha	84.	Adirma	Shu hududdagi qadimgi shahar, qo‘rg‘on nomi
			8.	Nomsiz ko‘cha	85.	Olmachi	Aholi qadimdan qo‘llagan joy nomi
		Dasht Azlartepa	1.	Nomsiz ko‘cha	86.	Bog‘iston	Bog‘li, suvli joy, ijobiy ma’noli so‘z
			2.	Nomsiz ko‘cha	87.	Katta Azlartepa	Azizlar tepaligi ma’nosida qo‘llangan.
		Azlartepa	1.	Nomsiz ko‘cha	88.	Aziztepa	Shu hududning qadimgi nomi, tepalik nomi
			2.	Nomsiz ko‘cha	89.	Past Azlartepa	Shu hududning qadimgi nomi
12.	**Boybo‘ri MFY**	Boyburi	1.	Nomsiz ko‘cha	90.	Boybo‘ri	Aholi punkti nomi
		Esaboy	1.	Nomsiz ko‘cha	91.	Esaboy	Aholi punkti nomi
13.	**Chim MFY**	Chim	1.	Nomsiz ko‘cha	92.	Chim	Shu hududning qadimgi nomi
			2.	Nomsiz ko‘cha	93.	Boshchorbog‘	Shu hududning qadimgi nomi
		Qizilsoy	3.	Nomsiz ko‘cha	94.	Zarafshon	O‘zbekistondagi qadimgi daryo va shahar nomi

			4.	Nomsiz ko‘cha	95.	Chimariq	Shu hududdagi katta ariq nomi
		O‘rta Chim	5.	Nomsiz ko‘cha	96.	Xalqa yo‘li	Chorrahada joylashgan ko‘cha nomi
			6.	Nomsiz ko‘cha	97.	Erksevar	Qomusiy olim, tarixda chuqur iz qoldirgan shaxs nomi
			7.	Nomsiz ko‘cha	98.	Gulsaroy	Gulzor, gulli saroy
14.	**Oynako‘l MFY**	Qo‘shchi	1.	Nomsiz ko‘cha	99.	Yangiturmush	Obod, chiroyli , yandi joy
		Devonbegi	1.	Nomsiz ko‘cha	100.	Xo‘jaobod	Shu hudud nomi bilan bog‘liq joy nomi
			2.	Nomsiz ko‘cha	101.	Obodhayot	Tinch. Obod qilingan joy Ijobiy ma’noli so‘z
		Oynako‘l	1.	Nomsiz ko‘cha	102.	Soyli	Aholi qadimdan qo‘llagan so‘z
				Nomsiz ko‘cha	103.	Cho‘lobod	Ijobiy ma’noli so‘z
				Nomsiz ko‘cha	104.	Oqtosh	Qadimgi joy nomlaridan biri
15.	**Qiziltepa MFY**	Qiziltom	1.	Nomsiz ko‘cha	105.	Laylibuloq	Shu hududda shu nom bilan
			2.	Nomsiz ko‘cha	106.	Daraguzar	Ijobiy ma’noli so‘z
			3.	Nomsiz ko‘cha	107	Gurilloq sharsharasi	Shu hududdagi sharshara nomi
16.	**Dovud MFY**	Suvtegir-mon	1.	Nomsiz ko‘cha	108	Bog‘ot	Shu hudud aholisi tomonidan qadimdan atalgan joy nomi
			2.	Nomsiz ko‘cha	109	Beltoshota	Qadimgi ziyoratgoh nomi
17.	**Oqguzar MFY**	Oqguzar	1.	Nomsiz ko‘cha	110	Yangi O‘zbekiston	Yangi ijobiy ma’noli so‘z
			2.	Nomsiz ko‘cha	111	Luqliko‘l	Shu hududda mavjud ko‘l nomi
			3.	Nomsiz ko‘cha	112	Kamoliddin Behzod	Iste’dodli o‘zbek rassomi 14-15-asr
			4.	Nomsiz ko‘cha	113	Yusuf Xos Hojib	Qadimgi turkiy tilda ijod qilgan alloma
18.	**G‘ishtli MFY**	Xalqobod	1.	Nomsiz ko‘cha	114	Mehrigo‘yo	Mehrli, mehribon
			2.	Nomsiz ko‘cha	115	Toshkent oqshomi	Tungi Toshkent chiroyi
		Baxrin	1.	Nomsiz ko‘cha	116	Zarobod	Chiroyli va boy yurt
			2.	Nomsiz ko‘cha	117	Yangizamon	Yosh nihol, yosh oilalar ko‘chib chiqqan joy
		Mang‘it-Olmazor	1.	Nomsiz ko‘cha	118	Sadriddin Ayniy	O‘zbek va tojik tillarda ijod qilgan atoqli adib
			2.	Nomsiz ko‘cha	119	Sharafiddin Ali Yazdiy	14-15-asrlarda yashagan iste’dodli tarixchi
			3.	Nomsiz ko‘cha	120	Qori Niyoziy	20-asr boshlarida yashagan atoqli o‘zbek olimi va adibi
			4.	Nomsiz ko‘cha	121	Sunbula	Bobodehqon oy nomi, kuz fasli

			5.	Nomsiz ko‘cha	122	Obodonchilik	O‘zbekistondagi joy nomlaridan birining nomi
			6.	Nomsiz ko‘cha	123	Hisor	Qal’a,Qashqadaryodagi eng baland va katta tog‘
		Yangi	1.	Nomsiz ko‘cha	124	Yangiqo‘rg‘on	Yosh oilalar ko‘chib chiqqan joy
			2.	Nomsiz ko‘cha	125	Navnihol	Qadimgi shahar nomi
		G‘ishtli	1.	Nomsiz ko‘cha	126	G‘ishtli	Shu hududdagi qadimiy joy nomi
			2.	Nomsiz ko‘cha	127	Chiroqli	Chirog‘i bor, yorug‘ ma’nosida aholi qadimdan qo‘llagan nom
19.	**Jonbo‘z MFY**	Jonbo‘z	1.	Nomsiz ko‘cha	128	Sadoqat	Vafo, sodiqlik, chin dildan
			2.	Nomsiz ko‘cha	129	Fidoyilar	Fidoyi insonlar, jonini fido qiluvchilar
			3.	Nomsiz ko‘cha	130	Ma’rifatparvar	Ilm-fanni ulug‘lovchi, targ‘ib qiluvchi, bilimli kishi
20.	**Badaxshon MFY**	Beldovtepa	1.	Nomsiz ko‘cha	131	Farovonlik	Obodlik, to‘kinlik,
			2.	Nomsiz ko‘cha	132	Tinch-totuvlik	Tinch, xotirjam, do‘st bo‘lib yashash
			3.	Nomsiz ko‘cha	133	Bekobod	Beklar, ziyolilar tomonidan obod qilingin joy
			4.	Nomsiz ko‘cha	134	Bog‘i Behisht	Amir Temur bog‘ining nomi
		Badaxshon	1.	Nomsiz ko‘cha	135	Obodturmush	Tinch, osoyishta, farovon hayot, turmush
			2.	Nomsiz ko‘cha	136	Dashtovul	Aholi qadimdan nomlagan joy nomi
			3.	Nomsiz ko‘cha	137	Beldovtepa	Hududning tarixiy nomi
			4.	Nomsiz ko‘cha	138	Bolg‘ali	Aholi qadimdan nomlagan joy nomi
			5.	Nomsiz ko‘cha	139	Naqshinkor	Naqshli. Go‘zal, obod joy
			6.	Nomsiz ko‘cha	140	Ziyolilar	Ilmli insonlar yashaydigan, maktab joylashgan ko‘cha nomi
			7.	Nomsiz ko‘cha	141	Kitobsevar	Ilmli. Ko‘p kitob o‘quvchilar yashash joy nomi
			8.	Nomsiz ko‘cha	142	Sayribog‘	Yam-yashil, chiroyli bog‘lari, gullari bor ko‘cha
21.	**Savsantepa MFY**	Savsan	1.	Nomsiz ko‘cha	143	Pastguzar	Qishloqning pastlik joyi, aholi nomlagan joy

			2.	Nomsiz ko‘cha	144	Beklar	Yaxshi, boy, ilmli insonlar yashagan manzil
			3.	Nomsiz ko‘cha	145	Mehrobod	Mehrli insonlar obod qilgan yurt,
		Nagahon	4.	Nomsiz ko‘cha	146	Fozillar	Ilmli, odob-axloqli kishilar
			5.	Nomsiz ko‘cha	147	Fayzli oshyon	Obod, go‘zal, yangi avlod yashaydigan joy,
			6.	Nomsiz ko‘cha	148	Qatorbog‘	Bog‘i ko‘p hudud, aholi oldindan atab kelgan joy nomi
22.	**Loyqasoy MFY**	SHo‘rcha	1.	Nomsiz ko‘cha	149	SHo‘rcha	Shu hududning qadimgi nomi
			2.	Nomsiz ko‘cha	150	Loyqasoy	Shu hududning qadimgi nomi
		Oltintepa	1.	Nomsiz ko‘cha	151	Navro‘zgul	Gul nomi, Ijobiy ma’noli so‘z
			2.	Nomsiz ko‘cha	152	Yuzlar	Yuqori lavozim, urug‘ nomi
			3.	Nomsiz ko‘cha	153	Maorif	Maktab, ilm-fan
			4.	Nomsiz ko‘cha	154	Sharafli	Faxr, g‘urur tuyg‘usi
		Soritepa	1.	Nomsiz ko‘cha	155	E’zozli	Ardoqli, hurmatli
			2.	Nomsiz ko‘cha	156	Mehr-shafqat	Mehribonlik, sahovat. Ijobiy ma’noli so‘z
		Tayoqli	1.	Nomsiz ko‘cha	157	Tayoqli	Shu hududning qadimgi nomi
			2.	Nomsiz ko‘cha	158	Jarqishloq	Qadimdan aholi tomonidan qo‘llangan joy nomi